

USMONIYLAR SULOLASI VAKILLARINING EPETETLARI

Kamolov Jahongir Mamasidiqovich,

Shozamonova Laylo

Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

E-mail: jahongir.kamolov.88@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarixiy shahslarning xususan Usmoniylar sulolasi vakillarining epeteti haqida ma'lumotlar manbalar va tarixiy materiallar asosida ochib berilgan. Taxallus yoki laqab olgan usmonli sultonlarining bu nomlari ularga qanday berilganligi haqidagi tadqiqotlar tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar.** Epetet, taxallus, laqab, sulton, bey, g'oziy, qabila, chalabey, Yildirim, yovuz, qonuniy, mast, qal'a, saroy, sarkarda, Kichik Osiyo, Vizantiya, usmonli, fotih.*

ЭПЕТЕТ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ОСМАНСКОЙ ДИНАСТИИ

***Аннотация.** В данной статье на основе источников и исторических материалов раскрываются сведения об эпитетах исторических деятелей, особенно представителей Османской династии. Анализируются исследования о том, как эти имена давались османским султанам, которым давали прозвища или прозвища.*

***Ключевые слова.** Эпитет, прозвище, прозвище, султан, бей, гази, племя, чалабей, йылдырым, злой, законный, пьяница, замок, дворец, военачальник, Малая Азия, Византия, Осман, завоеватель.*

***Abstract.** This article, based on sources and historical materials, reveals information about the epithets of historical figures, especially representatives of the Ottoman dynasty. Researches are analyzed on how these names were given to the Ottoman sultans who were given nicknames or nicknames.*

***Keywords.** Epithet, nickname, nickname, sultan, bey, ghazi, tribe, chalabey, yildirim, evil, legal, drunkard, castle, palace, commander, Asia Minor, Byzantium, Osman, conqueror.*

Tarixda o'tgan buyuk sulolalar va ularga asos solgan buyuk tarixiy shaxslar haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan, ammo ular olgan taxalluslar va laqablar, qisqa qilib aytganda ularga berilgan epitetlar qanday berilganligi, ular bu nomlarni qanday olganliklari haqida hali to'liq bir tadqiqotlar olib borilmagan. Shu boisdan ushbu tadqiqot ishida qisqacha bo'lsada ayni yuqoridagi mavzuga oid ma'lumotlar tahlil qilindi. Turkiy sulolalar ichida uzoq davom etganligi bilan tarixda nom qoldirgan Usmonli imperiyasining buyuk sultonlari o'zlarining tarixiy nomlaridan tashqari turli sifatlar bilan ulug'langan yoki laqab olgan. Usmoniylar imperiyasining asoschisi Ertug'ul kayi urug'ining sardori bo'lib, u mug'ullardan qochib saljuqiylar sultoni Kayqubod huzuriga boradi. Kayqubod I unga Vifiniya chegarasidagi Vizantiyaliklardan tortib olingan hududlarni beradi. Bu paytda bu hududlarga Melangiya va Siyogut kirgan bo'lib, keyinchalik davlatning tamal toshi aynan shu hududlarda qo'yildi¹. Bu davrda musulmon olamida g'ayridinlarga qarshi kurashib g'olib chiqqan sarkardalar o'z ismiga g'oziy laqabini qo'shib olishi odat tusiga aylangan edi. Ertug'ul ham boshqa musulmon sarkardalaridan qolishmagan holda Vizantiyadan tortib olingan hududlarga egalik qilib, o'z ismiga g'oziy laqabini qo'shib oldi. Ertug'ulning g'oziy laqabini olishi, turkiy kayi qabilasining Kichik Osiyoda davlat barpo etishi Vizantiya imperiyasining inqirozi davriga to'g'ri keldi. Bu paytgacha arablar imperiyaning katta hududlarini allaqachon istilo qilishgan bo'lib, Saljuqiy hukumdor Alp Arslon tomonidan 1071 yilda Manskrit jangida Roman V Diogen qo'shinlarini mag'lub etishi imperiyaning tanazzulini tezlashtirgan edi.² XIII asrning ikkinchi yarmida Anatoliyadagi beylar o'zaro urushgan bir paytda, Ertug'ul va uning o'g'li Usmon din uchun kurashchi sifatida tanildi. Zaiflashib borayotgan Vizantiyaning Kichik Osiyodagi erlari toboro turkiy qabilalar tomonidan egallab olina boshlandi. Ayni shu davrda kayi qabilasi ham Ertug'ul boshchiligida Kichik Osiyoda o'z erlarini kengaytirib borayotgan edi. Islom olamida g'oziy laqabini olinishi shubhasiz kayi etakchisi Ertug'ul va uning vorislarini mavqeyini oshirdi. Ertug'ulning vorisi Usmon davrida Usmoniylar salatanati kichik beylikdan davlatga aylandi. Usmon hukumronligini dastlabki yillarida asosiy e'tibor Melangiyaning to'liq bo'ysundirishga qaratildi. Usmonbeyni ham g'oziy laqabini olishida shubhasiz islom dini va kayi qabilasining taniqli shayxi Adibali hazratlarini ham o'rni bor. Bu shayx Ertug'ul va Usmonni g'oyaviy maslahatchisi bo'lib, ularning g'alabalarini qullab quvvatlab turgan³. Usmon egallangan hududlarga Garmiyon va Anatoliyadan aholini ko'chirib joylashtirdi. Xristian ibodatxonalari jome' masjidiga aylantirildi.

¹ Vohidov Sh. Sharqning mashhur sulolalari. – Toshkent. Akademiya nashri. 2013. – B. 394.

² Мустафаев Ш. М. От сельджуков к османам. Этнополитические процессы в тюркской среде Малой Азии в XI-XV веках. – С. 436.

³ Usmon Nuriy To'pboshi. "Bir ko'za suv" kitobi, – Moskva. 2010. – B. 34.

Usmonbeyni g'oziy laqabini olishida shubhasiz uning yuqoridagi xizmatlari ham muhim rol o'ynagan. Ma'lum vaqtdan keyin Usmon Saljuqiy sulton Aloiddin Kayquboddan beyligini tasdiqlovchi ramzlar – tug va nog'ora oldi. Usmoniyalar tarixida 1299 yil davlat tashkil topgan yil bo'ldi. Usmon davrida Bursa shahrini olishga qarshi harakatlar boshlanib bu vazifa uning o'g'li O'rxun davrida amalga oshirildi.

Uning vorisi O'rxun ham g'oziy laqabi bilan shuhrat qozongan bo'lib, Bursani davlat poytaxtiga aylantirdi. Uning davrida turklar Nikeya (Iznik)ni, Nikomediya (Izmit)ni qo'lga kiritishdi¹. O'rxun ham otasi Usmon kabi Vizantiyaga qarashli yerlarni qo'lga kiritib, nasroniylardan tortib olgani uchun u ham g'oziy laqabini oldi. O'rxun davrida turklar Bosfor sohillaridagi yerlarni zabt etib, birinchi bor Konstantinopol ostonalarida paydo bo'ldi. U Vizantiya imperatori bilan urushda g'alaba qozongach unga imperator o'z qizini turmushga berdi².

O'rxundan keyin taxtga Murod I keldi va u taxt uchun kurashlarda ukalari Ibrohim va Xalilni qatl etib yuboradi. Murod I davrida Anqara va uning atroflari egallandi. Poytaxtni Bursadan Edirniga ko'chirib, Vizantiya tasarrufidagi Gallipoli yarim orolini qaytarib oldi. Murod I Xudovondigor laqabi bilan tanilgan bo'lib, bu o'zini xudoga bag'ishlagan degan ma'noni anglatgan.

Murod I islom diniga qattiq ixlos qo'ygani uchun zamondoshlari va o'sha davr tarixchilari tomonidan Xudovondigor deb atalgan. Murod I haqidagi manbalarning guvohlik berishicha 1388 yilgi Iznikda u qurdirgan imoradagi keyinchalik Usmonli sultonlari uchun an'anaviy bo'lgan uslubdagi yozuvda “al-malik al-mu-azzam al-xoqon” “al-mukarram al-sulton ibn as-sulton” nomlari uchraydi³. Bundan tashqari yana bir boshqa manbada Mamluk sultoni o'z xabarida Murodni “Imon uchun jangchilar sultoni” (Sulton al-G'uzat va-l-Mujohidin) deb atagan⁴. Bu unvonlar Murod I haqidagi islom diniga e'tiqodi yuksak bo'lganligini va shu sababli yuqoridagi Xudovondigor laqabini olganligi sababi ochiqlangandek bo'ladi.

Murod I davrida Usmoniyalar imperiya darajasiga chiqdi. Bu davrda usmonli turklar tomonidan Bolqon va Kichik Osiyoning shimoliy g'arbiy hududlari to'liq egallanib, Qora va Marmar dengizigacha bo'lgan yerlar davlat tasarrufiga kiritildi.

Diniy arboblardan, turli xil oqimlar va axi uyushmasiga tayangan Usmon va uning vorislari davlatni mustahkamlashdi, yurishlarni «Iymonni himoya qilish uchun kurash» deb atashdi. Usmon va O'rxonni g'oziy laqabi bilan Murodni Xudovondigori laqabi bilan atalishlari ayni yuqoridagi holat bilan ham bog'liq.

¹ Vohidov Sh. Sharqning mashhur sulolalari. – Toshkent. Akademiya nashri. 2013. – B. 394.

² Nicolle, David and Hook, Adam. Ottoman Fortifications 1300-1710 (29-oktabr 2014-yil). Osprey Publishing, 2010. Retrieved 3-Sep 2011-yil.

³ Ağoston G. Murad I // Encyclopedia of the Ottoman Empire. — 2009. — P. 396—399.

⁴ Atçil A. Scholars and Sultans in the Early Modern Ottoman Empire. — Cambridge University Press, 2016. — 259 c. — ISBN 9781316819326.

Murod I 1389 yil Serbiya uchun boʻlgan Kosova jangida vatanparvar serb askari (tarixiy maʼlumotlarga koʻra Milosh) tomonidan xanjar bilan suiqasd tufayli yaralanib vafot etadi. Ayni paytda Murod I ning oʻgʻli Boyazid jangni oxirigacha yetkazib gʻalabaga erishadi. Usmoniylar uchun XIV asr oxirlaridagi eng muhim voqea Anatoliyadagi turk beyliklarini boʻysundirish boʻldi. Qisqa muddatda Boyazid Anatoliyaning gʻarbiy va markaziy qismidagi Oydin, Saruxan, Garmiyon, Mentеше va Xamid beyliklarini tobe qildi. Yuqoridagi shiddatli yurishlar natijasida Boyazid “Yildirim” (chaqmoq, yashindan tez) laqabi bilan mashhur boʻldi¹. Uning davrida asosiy voqea Konstantinopolni qamalga olinishi boʻldi. Ayni shu vaqtda Amir Temurning Boyazidga qarshi yurishi boshlanib, 1402-yilning iyun oyida Anqara yaqinidagi Chubuq mavzeysida Boyazid magʻlubiyatga uchrab Sohibqironga asir tushadi va uning Qorabogʻdagi oʻrdugohida 1403 yilda vafot etdi. Shubhasiz Boyazidga berilgan nisbat uning mohir sarkarda va yetuk davlat arbobi boʻlganligini tasdiqlaydi. Sharqiy Yevropa hududlariga qilingan barcha yurishlarda u tez fursatlarda gʻalabalarga erishib oʻziga berilgan laqabga munosib ekanligini isbotlagan.

Boyazidning vorislari davrida Usmoniylar mulklari ularga meros qilib berildi. Ular oʻrtasidagi kurashlarda Muhammad I gʻolib chiqib, otasi davridagi yerlarni birlashtirdi. Muhammad I Chalabiy nomi bilan tarixda qolgan boʻlib, bu laqab turkchada “xudoning odami”, “janob” “odobli”, qadimgi turkchada esa “xudo” degan maʼnolarni ham anglatgan². Shunga koʻra Muhammadning bu unvoni turkiy ajdodlaridan meros deyish mumkin. Bundan tashqari turk sultonlarini islom himoyachilari sifatida qaraydigan boʻlsak shubhasiz bu chalabey unvoni ham shunga nisbat berilgan boʻlishi ehtimoldan holi emas. Sulton Muhammad Rumeliya va Anatoliyadagi usmoniylarning oldingi xududlarini qaytarib olishga erishdi. Hatto Vizantiya bilan munosabatlarni yaxshilash maqsadida Muso egallagan Fessaloniki va boshqa shaharlarni ham qaytarib beradi. Muhammad I 1421 yilda Edirnada vafot etdi.

Murod II Soniy Usmoniylar tarixida yaxshigina iz qoldirgan boʻlsada tarixiy manbalarda uning alohida taxallus yoki laqab olgani haqida maʼlumotlar uchramaydi. Shu sababli biz uning vorisi Muhammad II haqidagi maʼlumotlarni tahlil qilishni maqul topdik. Muhammad II Fotih taxallusi bilan tarixda nom qoldirgan boʻlib, bu nom unga Vizantiya imperiyasining poytaxti Konstantinopol shahrini zabt etib, imperiyani tugatgani bilan izohlanadi³. Muhammad II tarixda ikki marta taxtga kelgan boʻlib, birinchi marta 1444 yilda 12 yoshda boʻlib, otasining taxtni unga topshirishi orqasidan sodir boʻlgan edi. Biroq bu davrda u yosh boʻlganligi bois ikki yillik hukmronlikdan

¹ Vohidov Sh. Sharqning mashhur sulolalari. – Toshkent. Akademiya nashri. 2013. – B. 402.

² Erdal Marsel. Musurmon xudosi uchun ilk turkey nomlar va Chalabey unvoni. Osiyo va Afrika tadqiqotlarida. 1982. 411-416 betlar.

³ Петросян Ю. Османский империя. Могущества и гибел. Москва. 1990. - С.74.

soʻng otasi Murod II yana qaytib taxtga keladi. Muhammad II to atasining vafotiga qadar Manisada valiahd sifatida Saruxan sanjoqbeyi boʻlib turdi. Tarixchilar bergan maʼlumotlarga koʻra Muhammad II Fotih fors, arab va yunon adabiyotini yaxshi bilgan, oʻzi ham “Avniy” taxallusi bilan sheʼriy devon bitgan¹. Yuqoridagi maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki Muhammad II Fotih keng bilimli, adabiyotni sevadigan, oʻz davrining yetuk davlat arbobi boʻlgan. U haqida koʻplab tarixchilar ijobiy fikr bildiradi. Fotihlik unga taqdiriy meros boʻlib, Usmonli turklarning buyuk sultoni sifatida tarixda oʻchmas iz qoldirdi. Uning davrida butun Kichik Osiyo, Bolqon, Sharqiy Yevropaning Osiyoga tutash qismlari yagona davlatga birlashtirildi. Muhammad II Fotih tarixchilarning bergan maʼlumotlariga qaraganda Yevropaga qilingan yurishlarni islom bayrogʻi ostida olib borgan. Oʻz davrida u “Yevropada xristianlikni tugatmaguncha qilichimni qiniga solmayman deb aytgan”. Muhammad II tomonidan Konstantinapol zabt etilib, turklar unga Istanbul deb nom berishdi. Fotih unvoni musulmon olamida fath etuvchi shaxs sifatida eʼtirof etiladi. Muhammadga musulmon tarixida shunday taxallus bilan nom qoldirish nasib qildiki, bu sifat uni usmonli sultonlari orasida yuksaklarga koʻtardi.

Muhammad II Fotihdan soʻng taxtga oʻgʻli Boyazid II Soniy keladi. U Boyazid I Yildirimdan keyingi boʻlgani sababli Soniy “Ikkinchi” nomi bilan tarixda qoldi. Uning davrida Polsha, Venetsiya, Misr va Eronga qarshi urushlar davom etdi. Boyazid yanicharlar fitnasi tufayli 1512 yil 25 aprelda taxtni oʻgʻli Salimga topshiradi.

Usmoniylar davlati hududlari Boyazid II ning vorisi Salim davrida nihoyat darajada kengayib, eron safaviylari, misr mamluklari va yevropa qirollari bilan urushlar olib borib, gʻalabalarga erishdi.

Yanicharlarni qoʻzgʻaloni tufayli taxtni oʻgʻliga topshirishga majbur boʻlgan Boyazid II koʻp oʻtmay zaharlab oʻldiriladi. Salim I taxtga kelishi bilan uning buyrugʻi bilan aka-ukalari va jiyanlari qatl etildi. Bu voqea sultonning koʻz oʻngida sodir boʻldi. Salim I taxtga chiqishi bilan keyinchalik unga berilgan “Yovuz” laqabini oqladi².

Salim I shialikning ashaddiy dushmani edi. Uning buyrugʻi bilan 1513 yili faqat chegara boʻyidagi shialarni butunlay yoʻq qilish harakati boshlandi (chunki Kichik Osiyo aholisining 4/5 qismi shia edi) va shialarning roʻyxati tuzildi. Shundan keyin 40 - 45 ming shia yoʻq qilindi. Qirgʻinga 7 yoshdan 70 yoshgacha shia aholisi giriftor etildi. Bu tadbir Eron chegarasidagi tumanlarda shialarini yoʻq qilib yuborib, Salim I qoʻshiniga Eronga qilinadigan yurish uchun yoʻl ochardi. Usmoniylar davlati Vengriya chegaralaridan va Adriatika sohillaridan tortib Fors koʻrfazigacha boʻlgan hududlarda muhim savdo yoʻllarini nazorat qildirdi. Misrdagi Mamluklar davlatining tugatilishi va

¹ Рансимен С. Падиния Константинополя в 1453 году. М: 1983. - С. 53.

² Vohidov Sh. Sharqning mashhur sulolalari. – Toshkent. Akadernashr. 2013. – B. 429.

Eroning 1514 yilgi eron-turk urushidan keyin kuchsizlanib qolishidan so‘ng, usmoniylar urush maydonini Yevropaga ko‘chirishdi. Salim I 54 yoshida Chorlu shahrida o‘latdan vafot etdi. U ko‘zlagan rejalarining ko‘piga yetolmadi, biroq o‘g‘li Sulaymonga davlatni juda kuchli holatda qoldirdi.

Salim I Yovuzdan keyin taxtga uning o‘g‘li Sulaymon I o‘tirdi. Tarixda Sulaymon Qonuniy laqabi bilan nom qoldirgan bu sulton otasidan keyin usmonlilar davlati sarhadlarini yanada kengaytirib, davlatda adolat mezonlarini o‘rnatdi. Qonuniy, Buyuk laqablaridan tashqari Sulton Sulaymon Muhibbiy taxallusi bilan she‘rlar yozgan. Arab va fors tillarini juda yaxshi bilgan. 4 ta devon tartib bergan. Devonida 2799 g‘azal, 1 alifnoma, 1 tarje‘band, 18 muxammas, 30 murabba‘, 51 to‘rtlik va 217 bayt bor¹. Sulton Sulaymon Qonuniy taxallusi bilan tarixda qolgan bo‘lsada, biroq uning yuqoridagi adabiy va mahalliy taxalluslari ham tarixda uchraydi.

Sulaymon Qonuniy davrida usmonlilar davlati sarhadlari Yevropada Vena ostonalarigacha Sharqda Hindistongacha kengayib, Afrikada istilolar davom ettirildi. 1555-yili Sulaymon I qo‘shini Sudanga yurish boshladi. 1556 – 1557 yillarda Sudanda usmoniylar hukmronligi o‘rnatildi. Keyinchalik sulton qo‘shini Afrikadagi Qizil dengiz sohillarini istilo qildi. 1557 yili Efiopiyaning asosiy bandargohi Massauanini zabt etdi, 1558 - 1559 yillarda turk qo‘shini bir necha bor Efiopiya- xujum qilib Shimoliy Eritreya ustidan to‘liq nazorat o‘rnatdi. Efiop urushi tanaffuslar bilan 1572 - 1589 yillarda davom etib, turklarga yangi hududlar keltirmadi².

Sulaymon I Qonuniy 72 yoshida vafot etgach, taxtga uning rafiqasi Xurramning o‘g‘li Salim II chiqadi. Salim aka ukalari ichida yagona tirik qolgan farzand bo‘lib, u ham umri davomida rafiqasi Nurbonuning aql idrokiga quloq solib otasining ishlarini davom ettirdi. Biroq tarixda “mast” laqabi bilan nom qoldirganligiga izoh bergan tarixchilar uning qattiq ichkilikka berilganligini qayd qilishadi³.

Salim umri davomida otasi davridagi voqea hodisalardan qattiq iztirobga tushadi va o‘sha paytlardan oq ichkilikka berila boshlaydi. Xurramning tanloviga ko‘ra tanlangan joriya Nurbonu (Sesiliya) Salimni ichkilikdan xolos qilishga qattiq kirishadi, ammo u ham bunga to‘la muvaffaq bo‘la olmadi. Ichkilik oxir oqibatda Salimni umriga yakun yasadi. Ammo tarixchilar uning laqabi “Mast” bo‘lsada, u to‘laligicha ichkilikboz emas edi deb ham qayd etishadi.

Salim II davrida usmonli turklar Muqaddas ligaga qarshi dengiz janrlarini olib borib, dastlab muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo‘lsada biroq keyinchalik g‘alabalarga erishdi. Salim davrida Shimoliy Afrikada Tunis hududlari zabt etilib, usmonlilar davlati sarhadlari markaziy Afrikagacha cho‘zildi.

¹ Muhibbiy – Sulton Sulaymon Qonuniy (1494-1566) Ziyoz.uz.

² А.Д.Новичев. История Турции. I част. Ленинград-1963. С. 144.

³ Ismail Hakki Uzuncarsili. Osmanli Tarihi. Cilt. III/1. Selimin tahta Cikisidan 1699 Karlofca Andlasmasina Kadar. Turk tarihi Kurumu Yayinlari. 1951, yeni edi. 1988. ISBN 975-16-0013-8

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vohidov Sh. Sharqning mashhur sulolalari. – Toshkent. Akademnashr. 2013.
2. Aliyev G.Z., Turtsiya v period pravleniya mladoturok, M., 1972;
3. O‘zbekistonning yangi tarixi, 1 kitob Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida, T., 2000;
4. Raxmaaliyev R., Imperiya tyurkov, M., 2002;
5. Erol Gungo‘r, Tarihsa turkiy davlatlar, T., 2003;
6. Mirzo Salimbek, Kashkuli Salimiy, Tavorixi mutgaqadimin va mutaaxirin, Buxoro, 2003.
7. LL:Miller A.F., Kratkaya istoriya Tursii, M., 1948;
8. Raxmanaliyev R., Imperiya tyurkov, M., 2002.
9. Nicolle, David and Hook, Adam. Ottoman Fortifications 1300-1710 Wayback Machine saytida arxivlandi (29-oktabr 2014-yil).. Osprey Publishing, 2010. Retrieved 3-Sep 2011-yil.
10. Ágoston G. Murad I // Encyclopedia of the Ottoman Empire. — 2009.
11. Atçıl A. Scholars and Sultans in the Early Modern Ottoman Empire. — Cambridge University Press, 2016. — 259 c. — ISBN 9781316819326.
12. Erdal Marsel. Musurmon xudosi uchun ilk turkey nomlar va Chalabey unvoni. Osiyo va Afrika tadqiqotlarida. 1982.
13. Петросян Ю. Османский империя. Могушества и гибел. Москва. 1990.
14. Рансимен С. Падиния Константинополя в 1453 году. М: 1983.
15. Muhibbiy – Sul-ton Sulaymon Qonuniy (1494-1566) Ziyoz.uz.
16. А.Д.Новичев. История Турции. I част. Ленинград-1963.
17. Ismail Hakki Uzuncarsili. Osmanli Tarihi. Cilt. III/1. Selimin tahta Cikisindan 1699 Karlofca Andlasmasina Kadar. Turk tarihi Kurumu Yayinlari. 1951, yeni edi. 1988. ISBN 975-16-0013-8